Oliy ta'lim muassasalarida shug'ullanuvchi voleybolchi qizlarning musobaqa oldi jismoniy va psixologik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi	612
<i>Xudoynazarova Sayyora Ravshanovna</i>	
Maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar asosida bolalarni axloqiy tarbiyalash texnologiyalari	618
<i>Yo'ldoshboyeva Gulmira Xushnudovna</i>	
Umumta'lim maktab seksiyasi uzunlikka sakrovchilarining jismoniy rivojlanganlik darajasi	621
<i>Zokir Akramov O'tkir o'g'li</i>	
Perseptiv qobiliyat: o'qituvchining o'quvchini tushunish sa'nati	625
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdaliyevich</i>	
Ожидания и потребности родителей как основа продвижения услуг дошкольного образовательного учреждения в Республике Узбекистан	628
<i>Ким Ирина Николаевна, Аббосхонова Зухра Баходир кизи</i>	
Экспериментальная деятельность – метод развития здоровьесберегающей компетентности у детей старшего дошкольного возраста	631
<i>Ким Ирина Николаевна, Алиходжаева Райхон Шавкат кизи</i>	
Подготовка детей-билингвов к школьному обучению: интеграция цифровых и традиционных педагогических методов	634
<i>Ким Ирина Николаевна, Умарова Шоиста Рустамовна</i>	
Zamonaviy ta'lim muhitida tarbiya tizimini takomillashtirishda interaktiv metodlarning o'rni	637
<i>Islamova Dilfuza Dilshodovna, Baymurotova Madina Baxodir qizi</i>	
Methodological Support of the Process of Developing Preschoolers' Cognitive Skills Through TRIZ (TIPS) in a Technology-Enhanced Learning Environment	641
<i>Gauxar Djanpeisova, Veronika Gorbunova</i>	
Innovative Approaches to Early Mathematics Education and Development in Preschool Children	646
<i>Gauxar Djanpeisova, Shaxodat Berdiyeva</i>	
Ta'lim jarayonida intensiv texnologiyalar asosida mantiqiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi	650
<i>Radjabova Mohigul Alisherovna</i>	
O'quv jarayonida ongli mushohada ko'nikmasini rivojlantirishda savol-javob usulidan foydalanish asoslari	653
<i>Ro'zimetova Intizor Alimovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari yozuv malakalarini shakllantirishning psixolingvistik tasnifi	656
<i>Axmadaliyev Murodjon Ulug'bek o'g'li, Xojimatova Shoxsanam Erkinjon qizi</i>	
Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'qituvchi kompetensiyasiga ta'siri	659
<i>Azamatova Rayhona Bahromjon qizi</i>	
13-14 yoshli o'quvchilarda harakatli o'yinlar va zamonaviy futbol mashg'ulotlarini integratsiya qilishning pedagogik asoslari	662
<i>Babayev Anvarjon Axmedovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish (nazariya, amaliyot va natijalar) ...	666
<i>Berdiyev G'ayrat Ulaboyevich, A. N. Sadatova</i>	
Elektron portfoliolar asosida individual rivojlanishni monitoring qilishning diagnostik modeli	670
<i>Kopbayeva Baxtigul Ziyadinovna</i>	
Pedagogik atamalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati	674
<i>Islomov Nurtoy Nomoz o'g'li</i>	
Abdulla Avloniyning axloqiy-ta'limiy qarashlari	678
<i>Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich, Turg'unov Dostonbek Rustamjon o'g'li</i>	

Talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	682
<i>Ziyotov Farrux Saodilla o'g'li</i>	
Nazorat qiluvchi pedagogik dasturiy vositalarni yaratishda sun'iy intellektning ahamiyati	686
<i>Ermonov Sherzod Ibrayim o'g'li</i>	
Kreativ yondashuv asosida bo'lajak muhandislarda sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari	690
<i>Ibragimova Aziza Avaz qizi</i>	
Oliy ta'limda dual ta'lim va malakaviy amaliyotni takomillashtirish ("musiqqa ta'limi" misolida)	694
<i>Raximov Nurillo Narzullayevich</i>	
Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa san'atining shaxs ma'naviy-estetik tarbiyasidagi pedagogik ahamiyati	698
<i>Sattarov Alisher Alikul o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinflarda multimediali mantiqiy masalalar orqali o'quv jarayonini faollashtirish	702
<i>Jamoldinova Dildora Alijon qizi</i>	
Ta'lim markazlarida o'quvchilarning nutq kompetensiyalarini rivojlantirish metodologiyasi	706
<i>Buriyeva Xumoraxon O'lmasboy qizi</i>	
Raqamli jamiyatda o'smir yoshdagi o'quvchilarning huquqiy axborot olish madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari	710
<i>Xayrullayev Axror Aktam o'g'li</i>	
AI-грамотность будущих педагогов: компоненты, вызовы и педагогические стратегии этической интеграции искусственного интеллекта	713
<i>Наркабилова Г. П.</i>	
Роль психолого-педагогических факторов в формировании нравственного поведения дошкольников	718
<i>Рахматходжаева Ф. М.</i>	
Внедрение инновационных технологий в дошкольно-образовательном учреждении	721
<i>Садикова Шоиста Акбаровна</i>	
Para stol tennisi sportchilarida jismoniy tayyorgarlikni oshirish samaradorligi	726
<i>X. A. Usmonova</i>	
Systematic Approach to the Issues of Educational Calculation in General Secondary Schools	729
<i>Ajiniyazova Sholpan Saparniyazovna</i>	
Роль системного профессионального развития в формировании компетентности учителей английского языка: международные тенденции и практика Узбекистана	733
<i>Жамолиддинова Нилуфар Акрамжоновна</i>	
Boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida funksional savodxonlikni rivojlantirish usullari	738
<i>Xujamkulova Nafisa Ruzikulovna, Saidmudova Maftuna Alisher qizi, Hafizova Oydinoy Doniyor qizi, Xujamkulova Maqsuda Ruzikulovna</i>	
Ingliz tili darslarida Kahoot o'quv platformasidan samarali foydalanish	743
<i>Amankulov Shavkat Qudratovich</i>	
Bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda polisensor muloqot metodikasi	747
<i>Musratova Zilola Ulug'bekovna</i>	
Коммуникативные способности педагога – ключ к эффективному взаимодействию с учащимися	752
<i>Акрамова Л. Ю.</i>	
Искусственный интеллект в образовании: киберпедагогические стратегии развития критического мышления	756
<i>Сайфитдинов Исломбек Зоирович</i>	
Регион как фактор суицидального риска: от климата до культуры общения	761
<i>Султанова Амина Анваровна, Махсумова Зилола</i>	
Bo'lajak shifokorlarga anesteziologiya va reanimatologiya fanini o'qitishning nazariy asoslari	765
<i>Ismailov Oybek Abdurasulovich</i>	
Sun'iy intellekt (SI)ning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi metodik ahamiyati	768
<i>Komilov Furqat Solijon o'g'li</i>	
Implementing Total Physical Response Techniques in Your Language Class	770
<i>Rakhmatova Madina Sobirovna</i>	

13-14 YOSHLI O'QUVCHILARDA HARAKATLI O'YINLAR VA ZAMONAVIY FUTBOL MASHG'ULOTLARINI INTEGRASIYA QILISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Babayev Anvarjon Axmedovich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti,
Jismoniy madaniyat kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada 13-14 yoshli o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi va harakat faolligini oshirishda harakatli o'yinlar hamda zamonaviy futbol mashg'ulotlarini integratsiyalashning pedagogik asoslari yoritilgan. Tadqiqot jarayonida o'quvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlari, ularning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda o'yin faoliyatining o'rni hamda futbol mashg'ulotlarida innovatsion yondashuvlardan foydalanish masalalari tahlil qilindi. Harakatli o'yinlar orqali futbol texnik-taktik elementlarini samarali o'rgatish, mashg'ulot jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etish imkoniyatlari ko'rsatib berildi. Tadqiqot natijalari integratsiyalashgan mashg'ulotlar o'quvchilarning chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilik va jamoaviy hamkorlik sifatlarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Maqola umumta'lim maktablari jismoniy tarbiya o'qituvchilari va futbol murabbiylari uchun metodik tavsiyalar berishga yo'naltirilgan.

Kalit so'zlar: harakatli o'yinlar, zamonaviy futbol mashg'ulotlari, integratsiya, pedagogik asoslar, jismoniy tayyorgarlik, 13-14 yoshli o'quvchilar.

Abstract: This scientific article examines the pedagogical foundations of integrating active games and modern football training to enhance the physical development and motor activity of 13-14-year-old students. The study analyzes learners' age-related and psychophysiological characteristics, the role of game-based activities in developing physical qualities, and the use of innovative approaches in football training sessions. It demonstrates the possibilities of effectively teaching football technical and tactical elements through active games and organizing training sessions in an engaging and efficient manner. The research findings confirm that integrated training positively influences the development of students' agility, speed, endurance, and teamwork skills. The article is aimed at providing methodological recommendations for physical education teachers and football coaches in general education schools.

Key words: active games, modern football training, integration, pedagogical foundations, physical training, 13-14-year-old students.

Аннотация: В данной научной статье рассматриваются педагогические основы интеграции подвижных игр и современных футбольных тренировок в целях повышения физического развития и двигательной активности учащихся 13-14 лет. В ходе исследования проанализированы возрастные и психофизиологические особенности обучающихся, роль игровой деятельности в развитии физических качеств, а также вопросы применения инновационных подходов в процессе футбольных тренировок. Показаны возможности эффективного обучения технико-тактическим элементам футбола посредством подвижных игр и организации тренировочного процесса в увлекательной и результативной форме. Результаты исследования подтверждают, что интегрированные занятия оказывают положительное влияние на развитие ловкости, быстроты, выносливости и навыков командного взаимодействия у учащихся. Статья ориентирована на предоставление методических рекомендаций для учителей физической культуры общеобразовательных школ и футбольных тренеров.

Ключевые слова: подвижные игры, современные футбольные тренировки, интеграция, педагогические основы, физическая подготовка, учащиеся 13-14 лет.

KIRISH

Hozirgi kunda umumta'lim maktablarida o'quvchilarning jismoniy rivojlanishini ta'minlash, ularning sog'lom turmush tarziga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda sport mashg'ulotlari samaradorligini yuksaltirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, 13–14 yoshli o'quvchilar organizmida jadal o'sish va rivojlantirish jarayonlari kechib, harakat faolligi, koordinatsiya va psixomotor qobiliyatlarni rivojlantirish uchun qulay davr hisoblanadi. Ushbu yosh bosqichida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini an'anaviy usullar bilan olib borish o'quv-



chilarning qiziqishini yetarli darajada ta'minlamasligi mumkin. Shu bois harakatli o'yinlar va zamonaviy futbol mashg'ulotlarini uyg'unlashtirish orqali mashg'ulotlarni mazmunan boyitish, o'yin faoliyati asosida texnik-taktik ko'nikmalarni shakllantirish pedagogik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, harakatli o'yinlar o'quvchilarda tabiiy harakat ehtiyojini qondirish, jamoada ishlash, tezkor qaror qabul qilish va musobaqaviy ruhni shakllantirishga xizmat qiladi, zamonaviy futbol mashg'ulotlari esa ularning jismoniy sifatlari bilan bir qatorda texnik va taktik tayyorgarligini rivojlantiradi. Ushbu ikki yo'nalishni integratsiya qilish orqali mashg'ulotlar samaradorligini oshirish, o'quvchilarning chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilik va muvofiqlashtirish qobiliyatlarini kompleks rivojlantirish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, integratsiyalashgan yondashuv jismoniy tarbiya o'qituvchilari va futbol murabbiylari uchun metodik jihatdan yangi imkoniyatlar ochib, ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash zaruratini belgilab beradi.

Tadqiqot maqsadi: Mazkur ilmiy tadqiqotning maqsadi 13–14 yoshli o'quvchilarning jismoniy rivojlaniishi va harakat faolligini oshirishda harakatli o'yinlar hamda zamonaviy futbol mashg'ulotlarini integratsiyalashning pedagogik asoslarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslash hamda ushbu integratsiyalashgan mashg'ulotlarning samaradorligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

- 13–14 yoshli o'quvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda harakatli o'yinlar va zamonaviy futbol mashg'ulotlarini integratsiyalashning pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilish;
- harakatli o'yinlar asosida futbol mashg'ulotlarini tashkil etishning samarali shakl va usullarini aniqlash hamda ularning o'quvchilarning jismoniy sifatlari rivojlantirishga ta'sirini o'rganish;
- integratsiyalashgan mashg'ulotlar orqali o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi, harakat ko'nikmalari va jamoaviy hamkorlik darajasidagi o'zgarishlarni tajriba-sinov ishlari asosida baholash.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda futbol mashg'ulotlarini pedagogik nuqtayi nazardan takomillashtirish, ayniqsa o'smir yoshdagi o'quvchilar bilan ishlash jarayonida harakatli o'yinlardan samarali foydalanish masalasi ko'plab tadqiqotchilar e'tiborini tortmoqda.

Namazov Z. Abduraximovichning (2025) futbol o'yinining tarqalishi va rivojlanish tarixiga bag'ishlangan ilmiy ishlari futbolning jismoniy tarbiya tizimidagi o'rni va tarbiyaviy ahamiyatini ochib beradi. Muallif futbolning ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida shakllanishini tahlil qilib, uning yoshlar jismoniy faolligini oshirishdagi rolini asoslab bergan. Bu jihatlar 13-14 yoshli o'quvchilar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarda futbolni o'yin faoliyati bilan integratsiyalash zaruratini ilmiy jihatdan asoslaydi ^[1].

Melikulov D. To'ychiyevich (2025) o'z tadqiqotida futbolning tarixi, asosiy qoidalari va global ahamiyatini yoritib, mazkur sport turining ta'lim jarayonidagi universal imkoniyatlarini ko'rsatib beradi. Muallif futbol mashg'ulotlarida yosh xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ta'kidlab, o'quvchilarning qiziqishini oshirishda o'yin metodlarining ahamiyatiga alohida to'xtaladi. Ushbu qarashlar harakatli o'yinlar orqali futbol elementlarini o'rgatishning pedagogik asoslari bilan bevosita uyg'unlashadi ^[2].

Namazov Z. Abduraximovichning (2025) futbol harakatlanish texnikasi va taktikasi bo'yicha olib borgan tadqiqotlari texnik-taktik elementlarni bosqichma-bosqich o'rgatish masalalariga bag'ishlangan. Muallif o'quvchilarda texnik harakatlarni shakllantirishda soddalashtirilgan mashqlar va o'yin usullaridan foydalanish samarali ekanini qayd etadi. Bu fikrlar 13-14 yoshli o'quvchilarda harakatli o'yinlarni zamonaviy futbol mashg'ulotlariga integratsiya qilishda metodik asos bo'lib xizmat qiladi ^[3].

Kutlimuratov M. A. (2025) futbol to'garaklarida shug'ullanuvchi yosh futbolchilar bilan ishlashda harakatli o'yinlardan foydalanish metodikasini yoritgan. Tadqiqotda harakatli o'yinlarning yosh futbolchilarning jismoniy sifatlari – chaqqonlik, tezkorlik, muvofiqlashtirish va chidamlilikni rivojlantirishdagi o'rni asoslab berilgan. Muallifning xulosalari integratsiyalashgan mashg'ulotlar samaradorligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi va mazkur maqola mavzusi uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi ^[4].

Ismoilova I. Ibragimovna (2024) ta'lim jarayonida bolalarning yuklamasini me'yoriylash va ularning psixologik holatini hisobga olish masalalarini ko'rib chiqadi. Mazkur tadqiqot bevosita futbolga bag'ishlanmagan bo'lsa-da, undagi pedagogik yondashuvlar, xususan bolalarda qiziqish va ijobiy motivatsiyani shakllantirish g'oyalari harakatli o'yinlar asosida tashkil etilgan futbol mashg'ulotlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi ^[5].

Janr va uslubning kontekstual ta'siri haqidagi (2024) ilmiy ishda ta'lim jarayonida uslubiy yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqot integratsiyalashgan mashg'ulotlarda o'yin metodining didaktik va psixologik ta'sirini tushuntirishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi ^[6].

Yunusov A. S. va hammualliflarining (1997/2007) didaktik o'yinlar va qiziqarli mashqlar haqidagi ishlari ta'lim jarayonida o'yin texnologiyalarining ahamiyatini ochib beradi. Ushbu manba harakatli o'yinlarni futbol mashg'ulotlariga moslashtirishda pedagogik tamoyillarni belgilash uchun muhim nazariy asos hisoblanadi ^[8].

Mamadjanov B. Djuraxanovich (2024) dars jarayonida psixologik ta'sir o'tkazish usullarini yoritib, o'quvchilarning faolligini oshirishda ijobiy emotsional muhit yaratish zarurligini ta'kidlaydi. Bu g'oya harakatli o'yinlar orqali futbol mashg'ulotlarini tashkil etishda muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo'ladi ^[9].

Sattarov Q. (2025) futbol o'yinlari orqali o'quvchilarda jismoniy tarbiya pedagogikasining ahamiyatini o'rganib, futbol mashg'ulotlarining tarbiyaviy va rivojlantiruvchi jihatlariga e'tibor qaratadi. Muallif futbol o'yinlari o'quvchilarda intizom, jamoaviylik va mas'uliyatni shakllantirishini ilmiy asoslaydi ^[10].

Axmedjanov Sh. (2025) futbol mashg'ulotlarida jamoaviy ruhni pedagogik usullar orqali rivojlantirish masalasini tadqiq etgan. Ushbu ish integratsiyalashgan mashg'ulotlarning ijtimoiy-pedagogik samaradorligini ochib berib, harakatli o'yinlarning jamoaviy hamkorlikni rivojlantirishdagi o'rnini tasdiqlaydi ^[11].

Tursunqulov M. (2025) futbol o'yinida to'p olib yurish texnikasi va taktikasi asoslarini tahlil qilib, yosh o'yinchilarga texnik elementlarni o'rgatishda o'yinli mashqlardan foydalanish samarali ekanini ko'rsatadi. Bu xulosalar 13-14 yoshli o'quvchilar bilan ishlashda harakatli o'yinlar asosida texnik tayyorgarlikni rivojlantirish g'oyasini qo'llab-quvvatlaydi ^[12].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot umumta'lim maktablarida 13–14 yoshli o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi va harakat faolligini oshirishda harakatli o'yinlar hamda zamonaviy futbol mashg'ulotlarini integratsiyalashning pedagogik samaradorligini aniqlashga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy pedagogik yondashuvlar, jismoniy tarbiya nazariyasi hamda sport mashg'ulotlarini tashkil etish tamoyillariga asoslanadi. Tadqiqot jarayonida tizimli, faoliyatga yo'naltirilgan va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlardan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlar uyg'un holda qo'llanildi. Nazariy metodlar sifatida ilmiy-pedagogik, psixologik va sport metodikasiga oid adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish usullaridan foydalanildi. Bu orqali harakatli o'yinlar va futbol mashg'ulotlarini integratsiyalashning nazariy asoslari, yoshga xos xususiyatlar hamda metodik talablar aniqlashtirildi.

Empirik metodlar doirasida pedagogik kuzatuv, suhbat, so'rovnoma hamda pedagogik tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari nazorat va tajriba guruhlariga asosida tashkil etildi.

Tajriba guruhida futbol mashg'ulotlari harakatli o'yinlar bilan integratsiyalashgan holda olib borildi, ya'ni mashg'ulotlar davomida o'yinli mashqlar, kichik o'yinlar va soddalashtirilgan musobaqa elementlaridan keng foydalanildi. Nazorat guruhida esa an'anaviy futbol mashg'ulotlari amalga oshirildi.

Tajriba davomida o'quvchilarning jismoniy sifatleri (tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, muvofiqlashtirish), harakat ko'nikmalari hamda jamoaviy hamkorlik darajasi baholandi. Olingan natijalarni tahlil qilishda matematik-statistik metodlardan foydalanildi. Tajriba oldi va tajriba yakunidagi ko'rsatkichlar taqqoslanib, integratsiyalashgan mashg'ulotlarning samaradorligi aniqlandi.

Tadqiqot metodologiyasi o'quvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulotlarni xavfsiz, qiziqarli va samarali tashkil etishni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib, olingan natijalar ilmiy xulosalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida 13–14 yoshli o'quvchilar bilan olib borilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari harakatli o'yinlar va zamonaviy futbol mashg'ulotlarini integratsiyalashgan holda tashkil etish jismoniy tarbiya mashg'ulotlari samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. Tajriba guruhida mashg'ulotlar o'yinli usullar asosida tashkil etilib, futbolning texnik va taktik elementlari harakatli o'yinlar orqali o'rgatildi, nazorat guruhida esa an'anaviy mashg'ulot usullari qo'llanildi. Tajriba yakunida olingan natijalar ikki guruh ko'rsatkichlarini taqqoslash asosida tahlil qilindi. Natijalarga ko'ra, tajriba guruhidagi o'quvchilarda tezkorlik, chaqqonlik va muvofiqlashtirish qobiliyatlari rivojlanish sur'ati nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo'ldi.

Xususan, o'yinli mashqlar asosida olib borilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning harakat reaksiyasini tezlashtirdi, fazoviy yo'nalishni anglash va harakatlarni muvofiqlashtirish darajasini oshirdi. Chidamlilik ko'rsatkichlari ham tajriba guruhida ijobiy o'sish dinamikasini namoyon etdi, bu esa mashg'ulotlar davomida yuklaning tabiiy va qiziqarli tarzda taqsimlanganligi bilan izohlanadi.

Texnik-taktik tayyorgarlikni baholash natijalari shuni ko'rsatdiki, harakatli o'yinlar orqali futbol elementlarini o'rgangan o'quvchilar to'pni olib yurish, uzatish va joy tanlash kabi ko'nikmalarni tezroq va barqarorroq egallagan. O'yinli vaziyatlar o'quvchilarda tezkor qaror qabul qilish va taktik fikrlashni shakllantirishga xizmat



qildi. Nazorat guruhida esa texnik harakatlarni o'zlashtirish ko'proq vaqt talab etgani hamda ayrim holatlarda mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqish pasaygani kuzatildi.

Tadqiqot davomida o'quvchilarning psixologik holati va mashg'ulotlarga bo'lgan munosabati ham tahlil qilindi. Tajriba guruhida o'quvchilarning mashg'ulotlarda faol ishtiroki, ijobiy emotsional holati va jamoaviy hamkorlik darajasi yuqori bo'ldi. Harakatli o'yinlar o'quvchilarda musobaqaviy ruh, o'zaro yordam va jamoa manfaatini ustun qo'yish kabi ijtimoiy-pedagogik sifatlarni rivojlantirdi. Bu esa futbol mashg'ulotlarining nafaqat jismoniy, balki tarbiyaviy ahamiyatini ham kuchaytirdi. Olingan natijalar avvalgi tadqiqotlar bilan solishtirilganda, mazkur tadqiqot xulosalari Namozov Z. A., Kutlimuratov M. A., Sattarov Q. va Ahmedjanov Sh. tomonidan bildirilgan ilmiy qarashlarni tasdiqlaydi. Xususan, harakatli o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning jismoniy va texnik tayyorgarligini kompleks rivojlantirishga xizmat qilishi haqidagi g'oyalar ushbu tadqiqot natijalari bilan mos keladi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari integratsiyalashgan yondashuvning 13–14 yoshli o'quvchilar uchun pedagogik jihatdan eng maqbul usullardan biri ekanini ko'rsatdi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari harakatli o'yinlar va zamonaviy futbol mashg'ulotlarini integratsiya qilish o'quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish, texnik-taktik tayyorgarligini oshirish va mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishda samarali pedagogik vosita ekanini isbotladi. Ushbu yondashuvni umumta'lim maktablari jismoniy tarbiya darslari va futbol to'garaklari faoliyatiga joriy etish ilmiy va amaliy jihatdan maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

Mazkur ilmiy tadqiqot natijalari 13–14 yoshli o'quvchilarda harakatli o'yinlar va zamonaviy futbol mashg'ulotlarini integratsiyalash pedagogik jihatdan samarali ekanini ko'rsatdi. Tadqiqot jarayonida o'quvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan integratsiyalashgan mashg'ulotlar ularning jismoniy rivojlanishi, harakat faolligi va mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirdi. Harakatli o'yinlar futbol mashg'ulotlarining mazmunini boyitib, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, harakatli o'yinlar asosida olib borilgan futbol mashg'ulotlari o'quvchilarning tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik va muvofiqlashtirish kabi asosiy jismoniy sifatlarini kompleks rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga, texnik-taktik tayyorgarlik darajasi, to'p bilan harakatlanish ko'nikmalari hamda o'yin vaziyatlarida tezkor qaror qabul qilish qobiliyatlari sezilarli darajada yaxshilandi. Integratsiyalashgan mashg'ulotlar o'quvchilarda jamoaviy hamkorlik, intizom va musobaqaviy ruhni shakllantirishga xizmat qildi.

Umuman olganda, tadqiqot xulosalari harakatli o'yinlar va zamonaviy futbol mashg'ulotlarini uyg'unlashtirish umumta'lim maktablari jismoniy tarbiya darslari va futbol to'garaklari faoliyatida samarali pedagogik yondashuv ekanini ilmiy jihatdan asoslaydi. Ushbu yondashuvni amaliyotga joriy etish o'quvchilarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish, sportga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularning jismoniy hamda ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduraximovich, Namazov Zafar. "Futbol o'yininig tarqalishi va rivojlanish tarixi". Научный информационный бюллетень, 7.1 (2025): 753–756.
2. To'ychiyevich, Melikulov Davronjon. "Futbol: tarixi, asosiy qoidalari va global ahamiyati". Ustozlar uchun, 74.1 (2025): 268–272.
3. Abduraximovich, Namozov Zafar. "Futbolda harakatlanish texnikasi va taktikasini bajarish uslublari". Икро журнал, 14.02 (2025): 1253–1256.
4. Uli Kutlimuratov, Muxammeddin Amangeldi. "Futbol to'garaklarida shug'ullanuvchi yosh futbolchilarda harakatli o'yinlarni qo'llash metodikasi". Образование и наука в XXI веке, 46-3 (2025).
5. Ibragimovna, Ismoilova Iroda. "Uy vazifasi bolalar uchun yaxshimi?". Interdiscipline Innovation and Scientific Research Conference, 2.20 (2024).
6. "Janr va uslubning kontekstual ta'sir qilish jarayonidagi o'rni". The Role of Genre and Style in the Process of Contextual Impact (2024).
7. Yunusov, A. S. va boshqalar. Qiziqarli matematika va olimpiada masalalari. Toshkent: "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007 (1997).
8. Djuraxanovich, Mamadjanov Baxodir. "Dars jarayonida talabalarga psixologik ta'sir o'tkazish usullari". Pedagogik tadqiqotlar jurnali, 1.2 (2024): 102–105.
9. Sattarov, Qarshiboy. "Futbol o'yinlari orqali o'quvchilarda jismoniy tarbiya pedagogikasining ahamiyati". Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali, 3.6 (2025).
10. Axmedjanov, Shuhrat. "Futbol mashg'ulotlarida o'quvchilarda jamoaviy ruhni pedagogik usullar bilan rivojlantirish". Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali, 3.6 (2025).
11. Tursunqulov, Mansur. "Futbol o'yinida to'p olib yurish texnikasi va taktikasi asoslari". Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali, 3.6 (2025).

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.